

Jizzax shahri

23.08 2024-yil

Jizzax politexnika instituti nomidan institut Ustavi asosida rektor A.K.Usmankulov (keyinchalik Institut deb yuritiladi) bir tomondan va ikkinchi tomondan "BYD UZBEKISTAN FACTORY" MCHJ QK korxonasi nomidan Ustav asosida ish yurituvchi Bosh direktori Sh.Sh. Ahmadov (keyinchalik Korxona deb yuritiladi) ikkinchi tomonidan ushbu shartnoma quyidagilar haqida tuzildi.

I. SHARTNOMANING MAQSADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-son Farmoni va 2020-yil 31-dekabrdagi "Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4939-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, dual ta'limni amalga oshirish, talabalar amaliyotini tashkil etish va ishga joylashtirish hamda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish;

Dual ta'lim, korxona talabi asosida maqsadli, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, talabalarni mutaxassisligi bo'yicha amaliy bilimlarni egallashi uchun amaliyotlarni tashkil etish va yosh mutaxassislarni ishga joylashtirish, professor-o'qituvchilarni ishlab chiqarishda stajirovkalarini o'tkazish, ilmiy tadqiqot ishlari, konsalting xizmatlarini tashkil etish.

II. TOMONLARNING VAZIFALARI

- Dual ta'limni hamkorlikda amalga oshirish;
- korxona uchun maqsadli, yuqori malakali kadrlar tayyorlash;
- korxona ishchi xodimlarini o'qitish, malakasini oshirish;
- professor-o'qituvchilarning korxonalarda ilmiy-kasbiy stajirovkalarini o'tkazish;
- talabalar amaliyotini tashkil etish;
- ishlab chiqarishdagi yuzaga kelgan muammolarni hal qilish, yangi texnologiya va uskunalar bilan jihozlashda mavjud uskunalami modernizatsiya qilishni hamkorlikda amalga oshirish;
- ehtiyoj bo'lganda maxsus shartnoma asosida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarishga tadbiq etish, konsalting xizmatlarini tashkil etish;

III. TOMONLARNING HUQUQLARI

Institut:

- talabalarining amaliyot o'tishi uchun korxonaning intellektual va moddiy texnikaviy bazasi imkoniyatlarini o'rganish va shu asosida tegishli taklif kiritish;

- texnologik jarayonlarning samaradorligini oshirish, ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarishda joriy etish bo'yicha takliflarni kiritish;

- korxonada mutaxassislik kafedra filiallarini tashkil etish;

Korxona:

- dual ta'limni tatbiq etish bo'yicha tegishli normativ-huquqiy hujjatlar, dasturlar, shartnomalar tuzishda, shuningdek, mutaxassislarni amaliy malaka talablarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

- instituting o'quv reja va dasturlari bilan tanishish hamda ularni ishlab chiqarish talablariga muvofiqlashtirish yuzasidan o'z takliflarini berish;

- maqsadli tayyorlanayotgan bitiruvchilarni kasbiy malaka va kompetentligi sinovini o'tkazish;

- bitiruvchilarning Davlat attestatsiyasi komissiyasi ishida ishtirok etish;

- mazkur shartnoma doirasida institut bilan ilmiy faoliyat va boshqa o'zaro kelishilgan masalalar bo'yicha qo'shimcha shartnomalar tuzish;

- maqsadli, yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha qo'shimcha kurslar tashkil etish uchun takliflar berish.

IV. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

Institut:

- hamkorlikda bakalavriat, magistratura bo'yicha maqsadli mutaxassislar tayyorlashda dual ta'limni tatbiq etish;

- ishlab chiqarishda ishlayotgan yoshlarni sirtqi bo'limlarga qabul qilish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish, bakalavriat va magistraturani tugatgan qobiliyatli yoshlarni doktoranturada o'qishlarini tashkil etish;

- har o'quv yili uchun korxona bilan kelishilgan holda talabalar amaliyot rejasini tuzish va tasdiqlash, unda talabalarning doimiy yashash manzilini inobatga olgan holda korxonalarga yuborish;

- institut tomonidan amaliyot rahbarligiga malakali professor-o'qituvchilarni biriktirish;

- korxonani ilmiy-texnik yutuqlarini ommalashtirishda faol ishtirok etish;

- bitiruvchilar to'g'risida tegishli tavsiyanomalar berish, ularning korxonadagi mehnat faoliyati monitoringini olib borish;

- korxonada amaliyot o'tagan talabalarni korxonaning rozilik xati asosida korxonaga ishga taqsimlash va yo'llanma berish;

- o'quv reja va dasturlarni tasdiqlashda korxonaning ishlab chiqarish talablariga muvofiqlashtirish bo'yicha bergan takliflarini inobatga olish;

- korxona rahbariyati tavsiyasi bo'yicha korxona ishchi-xodimlariga qisqa muddatli malaka oshirish kurslarini tashkil etish;

- korxona bilan kelishgan holda professor-o'qituvchilarning ishlab chiqarishda stajirovkalarini tashkil etish;

- ishlab chiqarishdagi ilmiy muammolarni hal qilish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish;

- korxona bilan kelishilgan holda ishlab-chiqarish jarayonlari, texnologik uskunalari ishlash samaradorligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini yaxshilash, takomillashtirish bo'yicha takliflar berish.

Korxona:

- mutaxassislarning amaliy malaka talablarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

- professor-o'qituvchilarning stajirovkalari uchun shart-sharoitlar yaratish, ehtiyoj bo'lganda mutaxassislik kafedralarning filiallarini tashkil etish va ularning amaliy mashg'ulotlarini o'tkazishni yo'lga qo'yish;

- har o'quv yilida kelishilgan rejaga muvofiq, o'quv rejadagi belgilangan muddatlarda talabalarning malaka amaliyoti va diplom oldi amaliyotlarini o'tashini ta'minlash;

- amaliyot o'tayotgan talabalarga amaliyot rahbarligi uchun korxonadan malakali mutaxassislarni biriktirish;

- talabalarni amaliyotini o'tkazish uchun zarur bo'lgan texnik hujjat va ma'lumotlar bilan tanishishga sharoit yaratish;

- talabalarning amaliyotini o'tkazishni amaliyot dasturiga muvofiq tashkil etish;

- mehnat muhofazasi bo'yicha umumiy va ish joylarida majburiy yo'l-yo'riqlar berilishini ta'minlash va tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish, zaruriy hollarda talabalarni xavfsiz ish joylari yoki usullariga tayangan holda o'quv seminarlarini tashkil etish;

- amaliyot tugagandan so'ng har bir talabaga amaliyotni o'taganligi to'g'risida tavsifnoma berish, korxonada bajargan ishlari bo'yicha hisobotlarini tasdiqlash;

- korxonada professor-o'qituvchilarni ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishlariga shart-sharoitlar yaratish;

- kadrlarga ehtiyoj bo'lganda korxonada amaliyot o'tagan talabalardan tanlov asosida ishga qabul qilish, bunda institutga yo'llanma berish bo'yicha so'rov xati yuborish;

- dual ta'limni tatbiq etish bo'yicha sharoitlar yaratish, tegishli normativ-huquqiy hujjatlar, dasturlar tayyorlashda ishtirok etish;

V. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI VA BEKOR QILISH TARTIBI

5.1. Shartnoma tomonlar uni imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi.

5.2. Agar tomonlardan birontasi shartnomani tugatishni yozma ravishda bildirmasa, shartnoma davom etadi.

5.3. Shartnoma quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

- tomonlarning o'zaro roziligi bilan;

- uzrli sabablar bilan hamkor tashabbusiga ko'ra;

- amaldagi qonunchilikda ko'rsatilgan boshqa hollarda.

VI. QO'SHIMCHA SHARTLAR

6.1. Tomonlarning yozma murojatiga ko'ra, ushbu hamkorlik shartnomasiga

qo'shimchalar hamda o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

6.2. Mazkur shartnoma taraflar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik yo'lga qo'yilayotganligi haqida tuzilgan bo'lib, taraflar o'rtasidagi har bir munosabat (amaliyot va stajirovka o'tash, ishga joylashtirish, filial yoki laboratoriya tashkil qilish hamda boshqa tadbirlar)ni amalga oshirish taraflar o'rtasida tuzilgan alohida shartnomalar asosida tartibga solinadi.

VII. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

Ushbu shart

7.1. Shartnoma yuzasidan yoki u bilan bog'liq holda tomonlar o'rtasida kelib chiqadigan nizo va ziddiyatlar, tomonlar o'rtasida muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etiladi.

7.2. Muzokaralar olib borish yo'li bilan nizoni hal etish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, mazkur shartnomaning tuzilishi, shartlarini o'zgartirish, bandlarining buzilishi, ijro etilishi, bekor bo'lishi, tugatilishi va haqiqiyliги yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolar, amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

VIII. TOMONLARNING REKVIZITLARI VA IMZOLARI:

Jizzax politexnika instituti

Manzil: Jizzax shahar

Islom Karimov shoh ko'chasi, 4-uy

Faks: (+998)72 226-45-47

x/r 23402000300100001010

INN: 201122919

MFO: 00014

Sh/xv 400910860084017094100079005

INN 201672757

Ta'lim muassasasining

bandari



Sana 20. 08. 2024 yil

«Korxona»

BYD UZBEKISTAN FACTORY MCHJ QK

Manzil Jizzax sh. Bunyodkor max. A. San'at joyi

Tel +998 88 198 22 06


Faks

x/r 20214000905616 08 000 1

kod

INN 310161998

Imzo



Sana 23. 08. 2024 yil

Shartnoma amaldagi huquqiy normalarga mos keladi.

JizPI katta yuristkonsulti